



# International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

*International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.*

## NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIK, LIKVIDLIK VA TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASHNING NAZARIY YONDASHUVLARI

*Ramazonov Fazliddin Farhod o'g'li*  
*Jamoat xavfisizligi universiteti,*  
*moliya bo'limi boshlig'i o'rinbosari*  
*specialone5767@gamil.com*

### ABSTRACT

Ushbu maqolada nodavlat oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy barqarorlik, likvidlik va to'lov qobiliyatini ta'minlashning nazariy yondashuvlari tadqiq etildi. Tadqiqotda daromadlarni diversifikatsiya qilish, joriy aktivlar va joriy majburiyatlar muvozanatini saqlash, o'z mablag'lari ulushini mustahkamlash, scenariyli rejalashtirish, ichki moliyaviy nazorat va ta'lim eksporti orqali tushum bazasini kengaytirish kabi yo'nalishlar o'rganildi.

**Keywords:** nodavlat oliy ta'lim muassasasi, moliyaviy barqarorlik, likvidlik, to'lov qobiliyati, joriy likvidlik, sof aylanma kapital, moliyaviy mustaqillik, daromadlarni diversifikatsiya qilish, ichki moliyaviy nazorat, ta'lim eksporti.

### Kirish

Jahon oliy ta'lim makonida nodavlat oliy ta'lim muassasalari sonining ortib borishi mazkur subyektlar faoliyatini faqat ta'lim berish jarayoni doirasida emas, balki murakkab iqtisodiy tizim sifatida ham o'rganishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, bozor munosabatlari chuqurlashib borayotgan sharoitda bunday muassasalarning uzoq muddatli faoliyati moliyaviy barqarorlik, joriy likvidlik va to'lov qobiliyati darajasiga bevosita bog'liq bo'lib qolmoqda. Chunki nodavlat oliy ta'lim muassasalari davlat budjeti bilan kafolatlangan moliyaviy tayanchga to'liq ega emas, ular ko'proq kontrakt tushumlari, xususiy kapital, grant mablag'lari, qo'shimcha ta'lim dasturlari, ilmiy loyihalar va xalqaro hamkorlikdan shakllanadigan daromadlarga tayangan holda rivojlanadi.

Nodavlat oliy ta'lim muassasasining moliyaviy holati odatiy xo'jalik yurituvchi subyektlardan ham, davlat oliy ta'lim muassasalaridan ham muayyan jihatlar bilan farq qiladi. Bir tomondan, u o'quv jarayonining uzluksizligini saqlashi, professor-o'qituvchilar mehnatiga haq to'lashi, infratuzilmani rivojlantirishi va ta'lim sifatini pasaytirmasligi zarur. Ikkinchi tomondan, talabalar

oqimidagi tebranishlar, to'lov intizomi, bozor raqobati, dasturlar jozibadorligi va tashqi iqtisodiy omillar uning moliyaviy muvozanatiga muntazam ta'sir ko'rsatadi. Shu bois bunday muassasalarda moliyaviy barqarorlikni baholashda nafaqat foyda miqdori, balki pul oqimlari tarkibi, joriy majburiyatlar yuklamasi, o'z mablag'lari ulushi va likvid aktivlar yetarliligi ham alohida tahlil etilishi lozim.

Hozirgi bosqichda oliy ta'lim sohasida raqobatning kuchayishi, ta'lim xizmatlari bozorining segmentlashuvi, xalqaro talabalar uchun kurashning keskinlashuvi hamda ta'lim eksporti ulushining ortib borishi nodavlat oliy ta'lim muassasalari moliyaviy boshqaruviga yangi talablarni qo'yimoqda. Endilikda moliyaviy siyosat faqat xarajatlarni qoplash doirasida emas, balki strategik rivojlanish, xavflarni oldindan baholash, daromadlarni diversifikatsiya qilish va likvidlik zaxiralarini oqilona shakllantirish bilan uzviy bog'langan holda qaralmoqda. Bunday sharoitda moliyaviy barqarorlik, likvidlik va to'lov qobiliyatini ta'minlashning nazariy asoslarini chuqur yoritish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatida moliyaviy barqarorlik, likvidlik va to'lov qobiliyati o'zaro chambarchas bog'langan uch tayanch holat hisoblanadi. Bunday muassasalar, odatda, davlat oliy ta'lim muassasalariga nisbatan kontrakt tushumlari, xususiylar, grantlar, qisqa kurslar, korporativ buyurtmalar hamda xalqaro talabalar oqimiga ko'proq suyanadi. Shu sabab ularning moliyaviy siyosatida daromadlar barqarorligi, joriy majburiyatlarni o'z vaqtida qoplash va zaxira likvid mablag'larni saqlash masalasi alohida o'rin egallaydi.

V.Reuterning (2000) fikricha, ta'limni moliyalashtirish tizimida moliyaviy avtonomiya, global budget, talabaga ergashuvchi moliyalashtirish va maqsadli fzaral kabi yondashuvlar muassasaning ichki barqarorligini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Muallifning qarashlarida ta'lim muassasasi moliyaviy boshqaruvi budget intizomi, bozor signallari va institutsional moslashuv uyg'unligida ko'riladi. Bu yondashuv nodavlat OTMlar uchun daromadlar oqimini kengaytirish bilan bir qatorda, zaxira likvid mablag'larni ham shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

T.V.Ignatova va E.M.Filimontsevaning (2016) fikricha, me'yoriy budget moliyalashtirish ta'lim sifati va raqobatbardoshlikni to'liq ta'minlay olmaydi, shu bois budget va budgetdan tashqari mablag'larni yagona moliyaviy mexanizm doirasida boshqarish zarur. Ularning qarashida moliyaviy barqarorlik bir vaqtning o'zida xarajatlarni qoplash, sifatni saqlash va rivojlanish ehtiyojlarini moliyalashtirish bilan bog'liq murakkab holatdir. Bu fikr nodavlat OTMlar uchun ayniqsa dolzarb, chunki bunday muassasalarda kontrakt tushumlari bilan birga investor mablag'lari, grantlar va qo'shimcha xizmatlar tushumi bir tizimda boshqariladi.

Paul Cropperning (2018) qarashicha, universitetlar moliyaviy barqarorligi ko'p jihatdan budget aniqligi, talabalar soni bo'yicha bashorat sifati, scenariyli rejalashtirish va ichki nazorat mexanizmlariga bog'liq. Muallif budget xatolari va noaniq daromad bashoratlari joriy likvidlikka bosim o'tkazishi mumkinligini ko'rsatadi. Shu sabab nodavlat OTMlar uchun moliyaviy strategiya "fakt bo'yicha hisoblash" bilan cheklanmay, oldindan ogohlantiruvchi rejalashtirish vositalarini ham qamrab olishi lozim.

Peter Mwangi Kariukining (2018) fikricha, xususiylar universitetlarda moliyaviy hisobot, hisob yuritish va ichki nazorat ta'lim sifati bilan uzviy bog'liq. Unga ko'ra, moliyaviy boshqaruvning sifati pasaysa, ta'lim sifati, ustuvor xarajatlar va mablag'lar aylanishi bo'yicha muammolar kuchayadi. Bu yondashuv likvidlik va to'lov qobiliyatini faqat sonli ko'rsatkichlar emas, balki boshqaruv intizomi bilan ham bog'lash kerakligini bildiradi.

Xolani M. Ngcoboning (2021) ta'kidlashicha, universitet moliyaviy barqarorligi daromadlarni diversifikatsiya qilish, uchinchi oqim tushumlarini kuchaytirish, qarzдорlikni boshqarish va o'quv natijadorligini yaxshilash bilan bevosita bog'liq. Muallif daromad manbalarining bir yoqlama shakllanishi moliyaviy zaiflikni kuchaytirishini ko'rsatadi. Shu bois nodavlat OTMlar uchun kontrakt tushumlariga ortiqcha tayangan model o'rniga ko'p manbali model fzaral hisoblanadi.

Lauren Ellulning (2016) fikricha, natijaga yo'naltirilgan budgetlash yondashuvi moliyaviy barqarorlikni faqat xarajat chegaralari bilan emas, balki ko'rsatkichlar, maqsadlar va nazorat bilan

bog'laydi. Muallif line-item asosidagi an'anaviy budjetlash holatida mablag'larning samaradorligi va xavfga sezgirligi yetarli baholanmasligini qayd etadi. Bu holat nodavlat OTMlarda to'lov qobiliyatini boshqarishda joriy likvidlik bilan birga strategik ko'rsatkichlarni ham kuzatish zarurligini ko'rsatadi.

Jalal A. Al-Hadi Salem Abiderning (2016) yozishicha, xususiy oliy ta'lim muassasalari ko'pincha talabalar to'lovlariga yuqori darajada bog'lanib qoladi, bu esa ularning moliyaviy mustahkamligini zaiflashtirishi mumkin. Muallif xususiy oliy ta'lim tizimi uchun sifat, talab, narx va moliyalashtirish bir-biridan ajratib bo'lmaydigan omillar ekanini ko'rsatadi. Bu yondashuv to'lov qobiliyati masalasida pul oqimlarini faqat ichki ehtiyoj emas, balki bozor holati bilan ham bog'lash kerakligini anglatadi.

Vojtěch Fidlerning (2015) fikricha, xususiy moliyalashtirishni joriy etish yoki kengaytirish samaradorlikni oshirish bilan birga ko'rib chiqilmasa, moliyaviy yuk pasaygan bo'lsa ham, institutning ichki natijadorligi mustahkamlanmasligi mumkin. Muallif o'qitish va tadqiqot samaradorligi o'rtasidagi farqlarni ko'rsatib, resurslar taqsimotini puxta tahlil qilish lozimligini qayd etadi. Bu qarash moliyaviy barqarorlikni faqat foyda miqdori emas, balki resurslarning qaysi yo'nalishlarga berilayotgani bilan ham o'lchash zarurligini ko'rsatadi.

Biao Chen, Yan Chen, Yajing Sun, Yu Tong va Ling Liuning (2024) fikricha, universitetlarda resurslar taqsimoti samaradorligi professor-o'qituvchilar tarkibi, xalqaro almashinuv, hududiy iqtisodiy muhit va moliyaviy qo'llab-quvvatlash kabi omillar bilan chambarchas bog'liq. Ular samaradorlikni DEA usuli, Malmquist indeksi va Tobit modeli asosida kompleks baholash orqali resurslar sifati va moliyaviy natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. Bu yondashuv moliyaviy barqarorlikni baholashda nafaqat balans va foyda, balki resurslar tarkibini ham inobatga olish zarurligini tasdiqlaydi.

D.B.Abdusattarovaning (2026) qarashicha, oliy ta'lim eksporti ta'lim muassasalari uchun barqaror valyuta tushumi, daromadlar portfelini kengaytirish va xalqaro raqobatbardoshlikni mustahkamlash yo'nalishidir. Muallif ta'lim eksporti bilan bog'liq moliyaviy natijadorlikni narx belgilash, xalqaro reytinglar, hamkorlik tarmoqlari va xizmatlar sifatini boshqarish bilan bog'laydi. Bu fikr nodavlat OTMlar uchun moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda ichki bozor bilan cheklanib qolmaslik kerakligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, adabiyotlar sharhi moliyaviy barqarorlik, likvidlik va to'lov qobiliyatini ta'minlashning nazariy yondashuvlari uchta yirik blokda namoyon bo'lishini ko'rsatadi: daromadlarni diversifikatsiya qilish, joriy aktiv va joriy majburiyatlar muvozanatini saqlash, o'z mablag'lari ulushini mustahkamlash. Bu bloklar ichki nazorat, strategik budjetlash va ta'lim eksporti bilan to'ldirilgandagina nodavlat OTMda uzoq muddatli moliyaviy mustahkamlik shakllanadi.

Tahlillarimizga ko'ra, Qo'qon universiteti MChJ shaklida faoliyat yuritadi, tashkiliy tuzilmada moliya departamenti, akademik ishlar departamenti, xalqaro hamkorlik departamenti, marketing va pr departamenti hamda registrator ofisi mavjud, bu tuzilmada moliyaviy boshqaruvning ichki institutsional asoslari shakllangan.

Qo'qon universitetida bakalavriat kunduzgi va masofaviy shakllarda 4 yil etib belgilangan, talabalar uchun moddiy qo'llab-quvvatlash, xalqaro tajriba orttirish va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan yo'nalishlar ham taqdim etiladi. Bu holat nodavlat OTMlarda moliyaviy barqarorlikni faqat buxgalteriya ko'rsatkichlari orqali emas, balki ta'lim bozori, xalqaro faollik va talabalarni ushlab qolish siyosati bilan birga ko'rish kerakligini bildiradi.

Nodavlat OTMlarda moliyaviy barqarorlik ko'p hollarda foyda mavjudligi bilan emas, balki tushumlarning takrorlanuvchanligi, majburiyatlarning tarkibi va likvid aktivlarning yetarliligi bilan belgilanadi. Qo'qon universitetining yuklangan moliyaviy hisobotlari 2021-2025 yillarda tushumlar, aktivlar va o'z mablag'lari hajmi jadal oshganini ko'rsatadi. Biroq bu o'sish hamma yillarda bir xil manba hisobidan shakllanmagan. Ayniqsa, 2023 yilda sotishdan sof tushum juda past bo'lsa-da, boshqa operatsion daromadlar hisobiga sof foyda yuqori shakllangan. Bu holat bir

martalik yoki noasosiy manbalar foydani ushlab turgan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi, ya'ni foyda borligi har doim ham barqaror likvidlik va ishonchli daromad bazasi mavjud degani emas.

1-jadval

### Qo'qon universitetida moliyaviy natijalar dinamikasi tahlili

Yil	Sotishdan sof tushum, mln so'm	Sotilgan xizmatlar tannarxi, mln so'm	Boshqa operatsion daromad, mln so'm	Asosiy faoliyat foydasi, mln so'm	Sof foyda, mln so'm
2021	24 881.8	8 302.3	22.6	9 911.9	9 921.8
2022	54 887.0	21 631.3	65.9	21 826.9	21 833.8
2023	146.5	20 427.5	101 111.7	68 426.6	68 448.2
2024	205 772.4	29 093.8	61.0	143 271.8	143 316.4
2025	304 780.9	120 715.2	233.6	132 019.4	131 970.5

1-jadvalga ko'ra, 2021 yildan 2022 yilga o'tishda sotishdan tushum ikki baravardan ortiq oshgan. 2023 yilda esa sotishdan sof tushum keskin pasaygan bo'lsa-da, boshqa operatsion daromadlar juda katta miqdorda shakllangan. 2024 va 2025 yillarda sotishdan tushumning jadal o'sishi qayta tiklangan. Bu dinamikada uchta muhim ilmiy xulosa ko'rinadi. Birinchidan, nodavlat OTMda foyda manbasining sifati foyda miqdoridan kam bo'lmagan darajada ahamiyatli. Ikkinchidan, 2023 yildagi tuzilma sotish daromadiga nisbatan barqaror bo'lmagan boshqa daromadlar hissasi yuqori bo'lganini ko'rsatadi. Uchinchidan, 2024-2025 yillarda ta'lim xizmatlaridan tushumning o'sishi operatsion bazaning mustahkamlanganini anglatadi. Moliyaviy barqarorlik nuqtai nazaridan eng qulay holat - takrorlanuvchi asosiy faoliyat daromadlarining ustunligi.

Likvidlik nuqtai nazaridan nodavlat OTM uchun joriy aktivlar va joriy majburiyatlar nisbatining barqaror bo'lishi alohida ahamiyatga ega. Qo'qon universiteti holatida 2021-2025 yillarda joriy likvidlik koeffitsiyenti 1 dan yuqori saqlangan. Bu joriy majburiyatlarni qoplash uchun joriy aktivlar hajmi yetarli ekanini anglatadi. Biroq likvidlikning yuqori bo'lishi ham doimo mutlaq xavfsizlik belgisi emas, chunki joriy aktivlar tarkibida pul mablag'lari ulushi, debitorlik qarzi ulushi va tez pulga aylanish darajasi turlicha bo'ladi.

2-jadval

### Qo'qon universitetida likvidlik ko'rsatkichlari tahlili

Yil	Joriy aktivlar, mln so'm	Joriy majburiyatlar, mln so'm	Joriy likvidlik	Tezkor likvidlik	Mutlaq likvidlik
2021	44 603.2	25 351.0	1.76	1.45	0.64
2022	63 107.0	37 249.7	1.69	1.56	1.05
2023	86 847.8	37 892.2	2.29	2.05	1.30
2024	117 885.6	18 467.2	6.38	6.35	4.29
2025	144 884.1	102 897.3	1.41	1.39	0.70

2-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, 2021–2023 yillarda likvidlik ko'rsatkichlari sog'lom darajada shakllangan. 2024 yilda joriy likvidlikning 6.38 ga chiqishi joriy majburiyatlarga nisbatan joriy aktivlarning juda katta ustunligini ko'rsatadi. Bunday holat qisqa muddatli to'lov xavfi past bo'lganini bildiradi, biroq bir paytning o'zida ortiqcha band qilingan likvid resurslar mavjud

bo'lishi ehtimolini ham tug'diradi. 2025 yilda joriy majburiyatlar keskin oshgani sabab koeffitsiyentlar pasaygan, lekin baribir 1 dan yuqori qolgan. Demak, universitetning joriy to'lov qobiliyati saqlangan, biroq 2024 yilga nisbatan xavfsizlik zaxirasi qisqargan. Tezkor likvidlikning ham 2025 yilda 1.39 bo'lishi zaxiralarsiz ham majburiyatlarni qoplash imkoniyati borligini ko'rsatadi. Mutlaq likvidlikning 0.70 darajada saqlanishi esa naqd va ekvivalent mablag'lar qisqa muddatli majburiyatlarning sezilarli qismini qoplashi mumkinligini anglatadi.

Moliyaviy barqarorlikning uchinchi tayanch ko'rsatkichi - o'z mablag'lari ulushi va sof aylanma kapital hajmidir. Agar o'z mablag'lari ulushi yuqori bo'lsa, tashqi majburiyatlarning bosimi kamayadi, institut ichki moliyaviy mustaqillikka ega bo'ladi. Qo'qon universiteti bo'yicha hisob-kitoblarda o'z mablag'lari ulushi barcha yillarda 0.59 dan 0.91 oralig'ida bo'lgan. Bu nodavlat OTM uchun kuchli ko'rsatkich hisoblanadi.

### 3-jadval

#### Qo'qon universitetida moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari tahlili

Yil	Jami aktivlar, mln so'm	O'z mablag'lari, mln so'm	Moliyaviy mustaqillik	Sof aylanma kapital, mln so'm	O'z aylanma mablag'lari, mln so'm
2021	61 409.7	36 058.7	0.59	19 252.1	19 252.1
2022	96 750.8	59 501.1	0.61	25 857.3	25 857.3
2023	127 486.6	89 594.4	0.70	48 955.5	48 955.5
2024	204 135.6	185 668.4	0.91	99 418.4	99 418.4
2025	301 042.0	198 144.7	0.66	41 986.8	41 986.8

3-jadvaldan ko'rinadiki, universitetda moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti 2024 yilda ayniqsa yuqori nuqtaga chiqqan. Bu davrda o'z mablag'lari ulushi 0.91 bo'lgani tashqi majburiyatlar bosimi juda past ekanini ko'rsatadi. 2025 yilda ushbu ko'rsatkich 0.66 ga tushgan bo'lsa-da, baribir xavfsiz diapazonda qolgan. Sof aylanma kapital barcha yillarda musbat bo'lgani universitet joriy aktivlarining joriy majburiyatlardan doim ustun bo'lganini bildiradi. Biroq joriy majburiyatlarda olingan avanslar ulushining 74.2 foizdan 95.4 foizgacha yetib borishi alohida e'tibor talab qiladi. Bu bir tomondan kelgusidagi xizmatlar uchun oldindan shakllangan pul oqimini bildirsa, ikkinchi tomondan ta'lim xizmatlarini kelgusida uzluksiz yetkazib berish majburiyatini ham kuchaytiradi. Demak, avanslar ulushining yuqoriligi likvidlikni qisqa muddatda yengillashtiradi, biroq kelgusidagi xizmat yuklamasini ham oshiradi.

Umumiy xulosa shuni ko'rsatadiki, Qo'qon universiteti misolida moliyaviy barqarorlikning uch asosiy tayanchi yaqqol namoyon bo'ladi: birinchisi, foyda va o'z mablag'lari ulushining o'sishi; ikkinchisi, joriy likvidlikning 1 dan yuqori saqlanishi; uchinchisi, sof aylanma kapitalning barcha yillarda musbat shakllanishi. Shu bilan birga, ayrim yillarda boshqa operatsion daromadlar va olingan avanslar ulushining yuqoriligi daromad sifati va kelgusi yuklamalarni boshqarish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida nodavlat oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy barqarorlik, likvidlik va to'lov qobiliyatini ta'minlashning nazariy yondashuvlari quyidagi uch blokda mujassam ekani aniqlandi: daromadlarni diversifikatsiya qilish, likvid aktivlar va joriy majburiyatlar muvozanatini saqlash, o'z mablag'lari ulushini mustahkamlash. Qo'qon universiteti misolida 2021–2025 yillardagi moliyaviy hisobotlar ushbu uch blokning amaliy ifodasini ko'rsatdi. Universitetda joriy likvidlik ko'rsatkichlari barcha yillarda me'yoriy darajadan yuqori saqlangan, o'z mablag'lari ulushi yuqori bo'lgan va sof aylanma kapital musbat shakllangan. Bu moliyaviy mustahkamlikning muhim belgilaridir.

Shu bilan birga, ayrim yillarda sotishdan tushum va boshqa operatsion daromadlar tarkibi o'rtasidagi keskin tafovutlar, shuningdek joriy majburiyatlarda olingan avanslar ulushining yuqoriligi ehtiyotkor moliyaviy boshqaruvni talab etadi. Shu sabab quyidagi takliflar ilgari suriladi.

Birinchidan, nodavlat OTMLlarda foyda hajmiga emas, uning manbasi sifatiga e'tibor qaratish lozim. Asosiy faoliyat daromadlari ulushi muntazam kuzatib borilishi kerak.

Ikkinchidan, joriy likvidlikni yuqori darajada ushlab turish bilan birga, ortiqcha band qilingan likvid resurslar rentabelligi ham tahlil qilinishi zarur.

Uchinchidan, olingan avanslar yuqori bo'lgan sharoitda kelgusi o'quv yuklamasi, xizmat sifati va xarajatlar rejasini oldindan muvofiqlashtirish kerak.

To'rtinchidan, Moliya departamenti faoliyati strategik budjetlash, scenariyli prognozlash va ichki nazorat bilan mustahkam bog'lanishi lozim. Qo'qon universiteti rasmiy saytida mavjud bo'linmalar tarkibi bunday tizimni shakllantirish uchun tashkiliy asos borligini ko'rsatadi.

Beshinchidan, ta'lim eksporti, qisqa kurslar, xalqaro hamkorlik va qo'shimcha xizmatlar orqali daromadlar portfelini kengaytirish nodavlat OTMning moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlaydi.

## References

- [1] Abdusattarova D.B. O'zbekiston oliy ta'lim eksport xizmatlari moliyaviy natijadorligini ta'minlash yo'llari // *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*. – 2026-yil, fevral. – № 2-son. – 1113–1117-betlar.
- [2] Abider, Jalal A. Al-Hadi Salem. *Financing Policy for Higher Education and the Role of the Private Sector in Libya*. University of East Anglia, 2016. 412 p.
- [3] Chen, Biao; Chen, Yan; Sun, Yajing; Tong, Yu; Liu, Ling. The measurement, level, and influence of resource allocation efficiency in universities: empirical evidence from 13 “double first class” universities in China // *Humanities and Social Sciences Communications*. 2024. Vol. 11. Article 955. Pp. 1–16.
- [4] Cropper, P. *Budgeting and Financial Planning in UK Universities: Accuracy, Caution and Control in an Era of Financialisation*. University of Huddersfield, 2018. 356 p.
- [5] Ellul, Lauren. *The Implementation of Performance Budgeting in the Maltese Public Sector*. University of Birmingham, 2016. 390 p.
- [6] Fidler, Bc. Vojtěch. *Efficiency and Private Financing in Public Higher Education Sector of the Czech Republic*. Master's thesis. Charles University in Prague, 2015. 99 p.
- [7] Kariuki, Peter Mwangi. *Effect of Financial Management Practices on Quality of Education in Private Universities in Kenya*. KCA University, 2018. 80 pages.
- [8] Ngcobo, Xolani M. *Exploration of Revenue Sources for Financial Sustainability of a Public University in KwaZulu-Natal: A Case Study of Durban University of Technology*. Master of Accounting dissertation. Durban University of Technology, 2021. 171 pages.
- [9] Игнатова Т.В., Филимонцева Е.М. Финансово-экономические аспекты модернизации системы образования в Российской Федерации // *Государственное и муниципальное управление. Ученые записки СКАГС*. – 2016. – № 3. – С. 153–160.
- [10] Ройтер В. Финансирование образования: Международные модели, пути, опыт и мышление // *Университетское управление: практика и анализ*. – 2000. – № 4(15). – С. 4–9.
- [11] [www.kokanduni.uz](http://www.kokanduni.uz) – Qo'qon universiteti rasmiy veb-sayti.